

**TA'LIM ISHINI TASHKIL ETISHDA KOMPETENSIYALARНИ  
RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK AHAMIYATI**

*Djaksilikova Aygerim Bakitjan qizi*

*Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat Pedagogika Instituti Turkiy tillar fakulteti  
Qozoq tili va adabiyoti ta'lim yo'nalishi talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ta'lim ishini tashkil etishda kompetensiya va kompetentlikni rivojlantirishning dolzarb muammo sifatida qaralishi haqida fikrlar mavjud. Shu bilan birgalikda maqolada kompetensiya kompetentlik, erkinlik kabi tushunchalar yondashuvi haqida fikr yuritilgan. Kompetensiyalarining siyosiy jarayonlar, ijtimoiy vaziyatlar bilan yuzaga kelishi haqida qarashlar ham mavjuddir. Bilim asosida kasbiy faoliyatning shakllanishi, shaxsiy fazilat va pedagogik mahoratni yuzaga kelishi o'quvchi-yoshlarning baholanish vazifalari kompetensiya bilan yuzaga keladi. Kompetensiyaning shakllanishi tarixi va bugungi kunda qo'llanilish darajasi, kompetensiyalari haqida ma'lumotlar mavjud. Yanada kompetensiyaning Benjamen Bloom ilmiy faoliyati bilan o'zaro bog'liqlilagini yo'lga qo'yish ham mavzuning dolzarblilik darajasini amalga oshirishga katta xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** Kompetensiya, kompetentlik, Bloom taksonomiyasi, kompetsiyaviy ta'lim, integral natijalar, kasbiy faoliyat.

### **KIRISH**

Bugunda ta'lim ishini tashkil etishda o'quvchi-yoshlarning individual xarakterli xususiyatlarini inobatga olish va ularning o'zlashtirish darajasini tubdan oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar keng ko'lamni kasb etadi. Harakatlar strategiyasining 2017-2021 yillarga bag'ishlangan qismlarida "komoetentlik" "kompetensiya" tushunchalari haqida ma'lumotlar berib o'tiladi. Shu bilan birgalikda Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi qarori ham ushbu tushunchalarning ta'lim jarayonida keng qamrovli kasb etishini ifodalab beradi. Ta'lim ishini tashkil etishda bosqichma-bosqichlilik va tushunarlilik, individuallik va jamoaviylik prinsiplari asosida ishslash bilan bog'liq professional yondashuv ishlari keng izlanishlarni tashkil etadi. Qolaversa, maxsus ma'lumotlarning olishi amaliy bilim va ko'nikmalarning oshirilishi tajriba o'choqlari bo'lgan maktab ta'lim dasturini rivojlantirishga keng e'tibor qaratilmoqda. Malaka oshirish va maxsus kurslarning, seminar-treninglarni tashkil etishilishida ham ushbu bosqichda o'quvchi-yoshlarga qaratilgan ta'lim ishi keng ko'lamda o'z aksini topadi. Sohani rivojlantirishda tajriba toplash yangi bilimlarni amalga oshirish tajribalar jarayonida maktab ta'lim tizimini ustuvor yo'nalishlarini oshirishning dolzarb masalalaridan biri bo'lganligini unutmasligimiz lozim.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Bugungi kunga qadar talim ishini tashkil etishdan tillarni o'qitish metodikasi, adabiyotshunoslik sohalarini birlashtirgan holatda zamonaviy interaktiv yo'nalishlari va uslublarini o'zaro birlashtirgan. Ta'lif jarayoni yuzaga kelishida shu bilan birgalikda o'quvchi-yoshlarning o'zlashtirish darajasi va ularning ta'lif jarayonida ketma-ketlik va bosqichlarga biriktirilgan bilim shakllarini egallashga yo'l ochilgan. Kompetentlikning turli bosqichlarda tekshirish yoki taqqoslash, sinov, imtihon tarzlarida yoki ma'lumotlarni tahlil qilish barobarida yetarlicha qo'llash mumkin. "Bular: siyosiy va ijtimoiy kompetensiyalar (o'ziga javobgarlikni olish, qaror qabul qilishda ishtirok etish, ziddiyatlarni zo'ravoniksiz hal qila olish); ko'p millatli jamiyatda yashash kompetensiyalari (tafovutlarni ehtirossiz qabul qilish, o'zgalarni hurmat qilish, boshqa madaniyat vakillari bilan o'zaro munosabatga kirishish); bir va undan ortiq tilda og'zaki va yozma muloqot qila olish; axborotlashgan jamiyatda yashash kompetensiyalari (yangi texnologiyalarni bilish, ularni qo'llay olish, ommaviy axborot vositalari orqali tarqatilayotgan ma'lumot, reklamalarga tanqidiy munosabatda bo'lish); butun hayoti davomida uzlusiz ta'lifni kasbiy tayyorgarlik kontekstida mustaqil o'zini o'zi o'qitish qobiliyati"[1]

## NATIJALAR

Shu bilan birgalikda kompetensiyalarni oshirishda nutqiy kompetensiya va kasbiy kompetensiyalarining ahamiyati ta'lif tizimida katta rol o'ynaydi. Kompetensiyalarning yo'rinqoma shakllarida yoki lavozimli boshqaruv ishlarida va ta'limda qo'llash keng o'rinn tutadi. Tekshirish yoki baholash tizimlari taqqoslash, sinov yoki imtihonlar bilan birgalikda ma'lum bir vazifalarni tahlil qilish, ma'lumotlarni o'rganish, tekshirishda yuzaga keladi. Shu bilan birgalikda baholash tizimining yo'lga qo'yilishi o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi munosabat hisobot jarayonlari va xavf-xatar to'siqlar unga qaramasdan ta'lif ishini yetuklik va yetarli darajada isloh qilishni ko'zda tutadi. Bu borada keng ko'lamli vazifalarini amalga oshiradi. Ayni xalqaro tajribalar ham bu borada katta ahamiyatga egadir. "Lug'atlarda "kompetentli" tushunchasi bir necha ma'nolarda keladi. Jumladan, muayyan kompetensiya ega bo'lgan, ya'ni biror bir tashkilot, shaxs faoliyatida vujudga keladigan muammo, vaziyatlarga: competentia (lot.) qonun bo'yicha taalluqli funksiyalarni amalga oshira oluvchi; ma'lum savollar to'plamiga javob bera oladigan, malakali mansabdor shaxsni anglatadi. E.A.Seytxalilov, B.X.Raximov, I.U.Madjidovlar tomonidan chop etilgan "Pedagogicheskiy slovar-spravochnik" lug'atida "kompetentli" termini "biror bir sohaga taaluqli bilimga egalik, xabardorlik", "kompetensiya" so'zini esa "ma'lum savollarga javoblarni yaxshi biladigan kishi", yoki "biror ishni qilish huquqiga ega odamlar doirasi", sifatida talqin qilinadi"[2].

## MUHOKAMA

Amerika ta'lif tizimi va Finlandiya ta'lif tizimiga qo'yilayotgan ijtimoiy

pedagogik kompetensiyalar va maxsus pedagogik kompetensiyalarni ahamiyati katta. Bu borada pedagogik faoliyatni zarur darajada amalga oshirish va ma'lumotlarga ega bo'lish zamonaviy yangiliklardan xabardor bo'lish, ularning ta'lim jarayoniga tadbiq etish katta rol o'ynayotganligi unutmaslik lozimdir. O'z kasbiy faoliyatini munosib baholay olish darajasi va mutaxassis sifatida o'zini va o'quvchilarini rivojlantirish qobiliyatlarini egallash lozim. Ijtimoiy-pedagogik kompetensiya esa berilgan vakolat doirasida amalga oshirilayotgan ish harakatlar, xatti-harakatlarning ta'lim jarayonida o`quvchi-o'qituvchi o'rtasidagi aloqa ko'nikmalari, pedagogik madaniyat va muomala madaniyatining shakllanishida katta rol o'ynaydi. Ijtimoiylik tendensiyalarni yuzaga keltiradi. Shaxsiy pedagogik kompetensiya esa individual rivojlanish bilan bevosita bog'liq bo'lib, jamoaviy va individual rivojlantirishga qaratilgan baholash, o'rganish texnikalarni amalga oshiradi. Kompetentlikning shakllanishida tajribaning o'rni kattadir. Unda o'quvchimizga nisbatan berilayotgan bilim shakli va uni tajribada sinash va uni baholash vazifalari katta ahamiyat berilmoqda. Bunda turli xil yo'nalishlar bo'yicha maxsus bilimlarni egallanishi amaliy uslublari va bilimlarning ega bo'lishi, malaka oshirish maqsadida tajriba maktablari va treninglarda qatnashish, kasbga nisbatan erishilgan yutuqlar, tajribalardan xabardor bo'lish yaxshi samaradorlikni yuzgaga keltiradi. Shuningdek ta'lim jarayoniga doir Benamen Bloomning ilgari surgan g'oya va tatqiqotlarini ham integratsiyalashtirish yaxshi samaradorlikni yuzaga keltiradi.

1. Axborotlarni bilish;
2. Anglashilayotgan fikrlarni tushunish;
3. Mavjud vaziyatdan foydalinish;
4. Mavzuning keng ko'lamda tahlil etilishi;
5. O'z ustida ishslash va xatolarni bartaraf etish, sintez masalalari;
6. O'quvchilarning bajarayotgan ish-harakatiga muvofiq tarzda baholash ko'nikmalarini rivojlantirish.

"Pedagog barcha vaziyatlarda ham o'z faoliyatini muvaffaqiyatli olib borishi uchun doimiy ravishda o'z bilim va mahoratini oshirib, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari, ilg'or xorijiy pedagogik tajribalar, metod va usullarni muntazam o'rganib, pedagogik kasbiy bilim va ko'nikmalar hamda shaxsiy sifatlarga ega bo'ldi va uning amaliy faoliyati davomida zarur kompetensiyalari rivojlanadi . Har qanday ilmiy tadqiqotni amalga oshirishning metodologiyasi tanlab olinadigan g'oyalari, nazariya va yondashuvlar asosida o'rganiladigan hodisa va jarayon mohiyati talqin qilinishida o'z ifodasini topadi, obyekt to'g'risidagi tasavvurlar modellashtiriladi, uni samarali rivojlantirishning mexanizmlari, vosita va pedagogik shart-sharoitlari aniqlanadi".[3]

## XULOSA

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, an'anaviy va noaniviy ta'llim dasturlari

asosida kompetensiyaga oid bilim va ko'nikmalarining qo'llanilishi, ularning ta'lif jarayonida tutgan o'rni haqida ma'lumotlar mavjud. Kasbiy faoliyati kompetensiyalarining shakllanishi va bu borada amalga oshirilayotgan ilmiy islohotlar, individual va zamonaviy ta'lifning bo'lajak o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatlari yuzasidan fikrlar o'z ifodasini topmoqda. O'quvchilarning muloqot jarayoniga tajriba jarayonining amalga oshirilishi va uning axborot texnologiyalarining tutgan o'rni katta ahamiyat kasb etadi. Ta'lif ishida bilimlilik va kompetentlikning o'rni yuzasidan fikrlar mavjud.

**FOYADALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Toshtemirova, Saodat Abdurashidovna (2022) «The need to improve social competences in future teachers,» Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal: Vol. 2022 : Iss. 1 Article
2. Педагогический словарь-справочник/ Авт.-сост.: Э.А.Сейтхалилов, Б.Х. Рахимов, И.У. Маджидов; под общ. ред. Б.Ю. Ходиева; М-во высш. и спр. спец. Образования РУз.- Т.: “Optimal lights”, 2011. -701с. – стр. 315.
3. Aziza Farxadovna Xamrayeva. Oliy ta'lif muassasasi talabalarining kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning mazmuni. Academic Research in Educational Sciences - 2021